

**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>**IN THE VIEW OF SCHOLARS: THE RELATIONSHIP BETWEEN LANGUAGE AND COGNITION****N.K. Buriyeva***Associate Professor of the Department of English Language Theory and Practice**JDPU**Jizzakh, Uzbekistan***D.U. Imomqulov***Basic Doctoral Student**Gulistan State University**Gulistan, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE**

Key words: Concept, cognitive linguistics, linguoculturology, thinking, conceptual metaphor, conceptual organization, cognitive semantics.

Received: 05.12.25**Accepted:** 06.12.25**Published:** 07.12.25

Abstract: This article provides a comprehensive analysis of the formation of the concept, its linguocultural and cognitive foundations. The main directions of cognitive linguistics, its philosophical roots, and the theory of conceptual metaphor are examined. The concept is interpreted as a multi-layered unity situated at the intersection of language, thought, and culture. Based on the theories of Langacker, Lakoff, and Chomsky, the theoretical essence of the concept, its structural components, and national-cultural features are revealed. The research results provide an important theoretical basis for understanding the concept as a central category at the intersection of not only linguistics but also philosophy, psychology, and cultural studies.

OLIMLAR NIGOHIDA: TIL VA IDROK O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK**N.Q. Bo'riyeva***Ingliz tili nazariyasi va amaliyoti kafedrası dotsenti**JDPU**Jizzax, O'zbekiston***D.O'. Imomqulov***Tayanch doktorant**Guliston Davlat Universiteti, Guliston**Guliston, O'zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: Konsept, kognitiv tilshunoslik, lingvomadaniyat, tafakkur, konseptual metafora, kontseptual tashkilot, kognitiv semantika.

Annotatsiya: Ushbu maqolada konsept tushunchasining shakllanishi, uning lingvomadaniy va kognitiv asoslari keng tahlil qilinadi. Kognitiv tilshunoslikning asosiy yoʻnalishlari va falsafiy ildizlari hamda konseptual metafora nazariyasi yoritilgan. Maqolada konsept inson tafakkuri, tili va madaniyatining kesishgan nuqtasidagi koʻp qatlamli birlik sifatida talqin qilinadi. Langacker, Lakoff, Chomskiy kabi olimlarning nazariyalari asosida konseptning nazariy mohiyati, uning tarkibiy qismlari va milliy-madaniy xususiyatlari ochib berilgan. Tadqiqot natijalari konsept tushunchasini nafaqat tilshunoslik, balki falsafa, psixologiya va madaniyatshunoslik kesishmasidagi markaziy kategoriya sifatida anglash uchun muhim nazariy asoslar taqdim etadi.

ВЗГЛЯД УЧЁНЫХ: ВЗАИМОСВЯЗЬ МЕЖДУ ЯЗЫКОМ И ВОСПРИЯТИЕМ

Н.К. Борийева

Доцент кафедры теории и практики английского языка

JDPU

Джизак, Узбекистан

Д.У. Имомкулов

Соискатель степени PhD

Гулистанский государственный университет

Гулистан, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Концепт, когнитивная лингвистика, лингвокультурология, мышление, концептуальная метафора, концептуальная организация, когнитивная семантика.

Аннотация: В данной статье подробно анализируется формирование понятия «концепт», его лингвокультурные и когнитивные основы. Рассматриваются основные направления когнитивной лингвистики, её философские корни и теория концептуальной метафоры. Концепт интерпретируется как многослойное единство, находящееся на пересечении языка, мышления и культуры. На основе теорий Лангакера, Лакоффа, Хомского раскрываются теоретическая сущность концепта, его структурные компоненты и национально-культурные особенности. Результаты исследования предоставляют важную теоретическую основу для понимания концепта как центральной категории, находящейся на стыке не только

Kirish. Insoniyatning eng qadimiy davrlarida yashab qolishning asosiy sharti samarali muloqot qobiliyati edi. Olimlarning fikricha, til dastlab imo-ishoralar va tana tilining ibtidoiy shaklida paydo bo'lib, asta-sekin takomillashib, dunyoni o'zlashtirishning eng kuchli vositasi— nutq tiliga aylangan. Bu murakkab jarayon minglab yillar davomida sodir bo'ldi. Inson ongi rivojlangan sari, uning har bir harakati va tovushi orqasida ma'no izlash instinkti paydo bo'ldi. Aynan shu nuqtadan boshlab, til va ong o'rtasida uzviy va o'chmas bog'liqlik shakllana boshladi. Mashhur tilshunos olimlar Edvard Sapir va Benjamin Li Uorfning ta'kidlashicha, "Til sizga atrofingizdagi olamni qanday ko'rishni o'rgatadi". Ushbu "lingvistik nisbiylik" printsiptan shu xulosaga kelish mumkinki, til nafaqat fikrni ifodalash vositasi, balki inson borlig'ini, dunyoqarashini va aqliy salohiyatini shakllantiruvchi asosiy omillardan biridir. Aynan shu ahamiyati sababli til hodisasi qadim zamonlardan beri olimlarning diqqat markazida bo'lib kelgan. Tilshunoslik mustaqil fan sifatida o'zining ilmiy asoslarini va tizimli metodologiyasini 19-asrda qiyosiy-tarixiy usulning yaratilishi bilan qo'lga kiritdi. Keyingi rivojlanish esa fanni yangi yo'nalishlarga, xususan, til va idrok o'rtasidagi munosabatni o'rganadigan sohalarga olib keldi. Ana shu sohalardan eng dolzarbi — kognitiv lingvistika hisoblanib, u 1970-yillarda mustaqil yo'nalish sifatida paydo bo'la boshladi.

Kognitiv lingvistika — nutq yaratish mexanizmlarini, lingvistik kommunikatsiyani va insonning kognitiv (idrok etish, eslab qolish, fikrlash) faoliyati qonuniyatlarini aniqlashga imkon beruvchi yo'nalishdir. U milliy tafakkur va psixologiyaning xususiyatlarini ochib beradi. Kognitiv tilshunoslik nuqtai nazaridan, universal til ma'nolarini ifodalovchi til birliklarining qanday qilib murakkab til tuzilmalari bilan bog'lanishini aniqlash muhim ahamiyatga ega (Erton, 2020). Biroq, inson idroki juda keng bo'lib, ba'zan til uni to'liq tavsiflashga yetmay qoladi. Ayni paytda, tilda mavjud bo'lgan ba'zi tushunchalar esa idrok etish yoki amaliy ma'no topishda qiyinchilik tug'dirishi mumkin.

Kognitiv tilshunoslikning shakllanishida bir qator olimlarning ulkan hissalarini bordir. Ular orasida Amerikalik tilshunos Ronald Langacker (1942-yilda tug'ilgan) ning nomi alohida ajralib turadi va u ushbu sohaning asoschilaridan biri hisoblanadi.

Ronald W. Langacker 1942-yil 24-dekabrda Amerika Qo'shma Shtatlarida tug'ilgan. Uning ilmiy yo'li butunlay Amerika tilshunoslik maktabi an'analarida shakllangan bo'lib, u Illinoys universitetida tahsil olgan va doktorlik dissertatsiyasini 1966-yilda tamomlagan. Dastlabki tadqiqotlari an'anaviy Amerika va hind-avropa tillariga bag'ishlangan bo'lsa-da, uning asosiy hissasi keyinchalik kognitiv tilshunoslikning nazariy asoslarini yaratishda namoyon bo'ldi.

Langacker o'zining "Kognitiv grammatika" asosiy kontseptsiyasi bilan sohaga turlicha yangiliklar kiritdi. Uning g'oyasi shundan iborat ediki, til qoidalari mustaqil, mavhum tizim emas, balki insonning umumiy kognitiv qobiliyatlari (masalan, diqqat, xotira, kategoriyalashtirish) asosida shakllanadi. U "Til – bu ma'nolar ifodalash uchun mo'ljallangan andoza" degan fikrni ilgari surib, til birliklarini inson idrokining turli jihatlarining aks etishi sifatida tahlil qildi. Uning ishi nafaqat tilshunoslikka, balki psixologiya kabi sohalarga ham katta ta'sir ko'rsatdi. Michigan universiteti va Kaliforniya universiteti kabi nufuzli ilmiy markazlarda dars bergan Langacker o'zining nazariyalari bilan butun bir ilmiy maktab yaratishga muvaffaq bo'ldi.

Ronald Langackerning kognitiv grammatika nazariyasi Noam Chomskiyning generativ yondashuviga qaratilgan fundamental tanqid sifatida shakllandi. Chomskiyning universal grammatika g'oyasiga asoslangan tug'ma til qobiliyati kontseptsiyasiga qarshi turib, Langacker tilning insonning umumiy kognitiv mexanizmlaridan ajralmas ekanligini ta'kidlaydi. Uning nazariyasiga ko'ra, til qobiliyati alohida, modulli sistema emas, balki inson miyasining kognitiv funksiyalarining - xotira, diqqat, kategorizatsiya, analogiya kabi jarayonlarning kompleks mahsulidir. Bolalar tilni o'rganishda universal grammatikaning tug'ma qoidalaridan emas, balki jismoniy va ijtimoiy tajribalar orqali shakllanadigan kognitiv strategiyalardan foydalanadilar. Langackerning yondashuvida til strukturasi semantik ma'noni ifodalash vositasi bo'lib, grammatik qurilmalar insonning dunyoni idrok etish usulining aksidir. Langackerning ta'rifiga ko'ra, til birliklari konseptual tuzilmalarning ramziy ifodasidir. Konseptual tuzilmalar esa insonning jismoniy, ijtimoiy va madaniy tajribalarining uzoq muddatli saqlanishi natijasida yuzaga keladi. Masalan, "yo'l" tushunchasi nafaqat jismoniy yo'lni masalan, "uzun yo'l", balki hayotiy jarayonni "hayot yo'li" ham ifodalashi mumkin. Bu esa jismoniy tajribaning mavhum sohalarga konseptual va lingvistik tarzda proyeksiyalanishini ko'rsatadi. Idrokning tilga ta'siri shuni ko'rsatadiki, til tuzilmalari insonning dunyoni qanday idrok etishiga bevosita bog'liq. Misol uchun, tillarda fazoviy predikatlar ("yuqorida", "pastda") ko'pincha ierarxiya yoki mavqe tushunchalarini ifodalash uchun ishlatiladi ("yuqori lavozim"). Bu holat jismoniy tajribaning konseptual va til shakllanishidagi markaziy o'rnini tasdiqlaydi.

Kognitiv tilshunoslikning yana bir nomoyondasi Jorj Lakoff

Jorj Lakoff – zamonaviy bilim va tushuncha yo'nalishlariga asos solgan olim sifatida – tilshunoslikka chuqur ta'sir ko'rsatgan iste'dodli olimdir. 1941-yili, 24-may kuni Nyu-Jersi shtatida dunyoga kelgan Lakoff o'zining ilmiy yo'lini Massachusetts Texnologiya Institutida boshladi va dastlab Noam Chomsky rahbarligida transformatsion grammatikani o'rgandi. Biroq, vaqt o'tishi bilan u an'anaviy tilshunoslik usullarining yetarli emasligini his qila boshladi, bu esa uning butunlay yangi soha – kognitiv tilshunoslikka asos solishiga turtki bo'ldi. U Garvard,

Michigan universitetlarida ishlagan, soʻngra 1972-yildan boshlab Kaliforniya universitetining Berklidagi filialida professor sifatida faoliyat yuritdi.

Lakoffning eng katta iz qoldirgan gʻoyalardan biri 1980-yilda Mark Jonson bilan hamkorlikda yozgan “Biz yashayotgan metaforalar” kitobida bayon etilgan kontseptual metafora haqidagi nazariyadir. Ushbu muhim asarda Lakoff metaforalarni nafaqat badiiy ifoda vositasi, balki inson miyasidagi tafakkur jarayonining muhim tarkibiy qismi ekanligini koʻrsatdi. Uning taʼkidlashicha, inson tushunchalar tizimi asosan metaforik asosga ega boʻlib, mavhum gʻoyalarni biz jismoniy tajribalar orqali anglashga harakat qilamiz. Misol uchun, “Sevgi – bu safar” yoki “Gʻazab – qaynoq suyuqlik” kabi iboralar nafaqat badiiy obrazlar, balki ongimizda mavjud boʻlgan tushunish usullarini aks ettiradi. Bu yondashuv, metaforaga anʼanaviy tilshunoslikda berilgan chekka rolni inkor etib, uni kognitiv jarayonlarning asosiy elementiga aylantirdi. Tasniflash masalasi haqidagi ishlarida Lakoff klassik, Aristotelcha modellarni rad etib, prototip nazariyasini ilgari surdi. “Ayollar, olov va xavfli narsalar” nomli keng qamrovli kitobida u koʻrsatganidek, toifalar qatʼiy chegaralar va mutlaq belgilarga ega emas, balki markaziy prototiplar va ularga yaqin yoki uzoqroq boʻlgan aʼzoldan tashkil topadi. Bu fikr til va tafakkurning oʻzaro bogʻliqligini, shuningdek, inson tushunchalarining madaniy va tana tajribasiga asoslanganligini taʼkidlaydi. Lakoffning aytishicha, bizning gʻoyalарimiz tanamiz va uning atrof-muhit bilan oʻzaro aloqasidan kelib chiqadi, bu hodisani u “tanaga asoslangan idrok” deb ataydi. Lakoffning fikricha, inson aqli tanadan mustaqil emas. Barcha fikrlash va tushunchalar tananing jismoniy tajribasi asosida shakllanadi. Masalan, "yuqori" tushunchasi (masalan, "yuqori martaba", "yuqori kayfiyat") bolaligimizda baland narsalarga koʻtarilishimizning jismoniy tajribasidan kelib chiqadi.

Noam Chomskiyning universal grammatika nazariyasiga koʻra, til qobiliyati insonga irsiy meros boʻlib, idrok jarayonlari nutqni shakllantiradi. Bu yondashuvda til strukturasi va uning qoidalari idrok mehanizmlari tomonidan belgilanadi. George Lakoff va Ronald Langackerning kognitiv lingvistika nazariyasiga koʻra, nutq va til idrokni shakllantiradi. Bu yondashuvda tilning shakllanishi insoning jismoniy va hissiy tajribalariga asoslanadi. Tajriba va Idrokning tilga taʼsiri borasida tilshunoslar quydagicha fikrlaydi. Bolalar dunyoni jismoniy tajriba orqali tushunadi. Atrof-muhit bilan oʻzaro taʼsir qilish natijasida ular turli his-tuygʻularni toʻplaydi. Masalan: "Issiq" tushunchasi - bola olov yaqinida qizishni his qilganda, bu tajriba uning miyasida saqlanadi. Keyinchalik u "issiq" soʻzini oʻrganib, uni bu hissiyot bilan bogʻlaydi. "Ogʻir" tushunchasi - bola oʻyinchoqni koʻtarishda mushaklarida kuchlanish his qiladi. Bu jismoniy tajriba unga "ogʻir" degan tushunchani shakllantiradi. Keyin u bu soʻzni qiyin narsalarni tasvirlash uchun ishlata boshlaydi. "Achchiq" tushunchasi - bola achchiq ovqatni tatib koʻrganida, tilida yoqimsiz hissiyot paydo boʻladi. Bu tajriba uning xotirasida qoladi. Kattaligida u nafaqat taʼm, balki ogʻriqli xotiralarni ham

"achchiq" so'zi bilan ifodalaydi. Bu jarayonda: Avval tajriba bo'ladi masalan, olovni his qilish, keyin miya bu tajribani qayta ishlaydi. So'ngra bu tajriba uchun so'z yoki ibora shakllanadi. Bu so'z boshqa o'xshash vaziyatlarda ham qo'llanila boshlaydi. Til shunday ishlaydiki, har bir so'z nafaqat narsalarning o'zini, balki ular bilan bog'liq his-tuyg'ularni ham ifodalaydi. Lakoff o'z ilmiy ishlarida metaforalarning tildagi, uning ifodasidagi o'rnini quyidagich izohlaydi "Metafora: mavhum tushunchalarni tushunish kaliti". Metafora - bu mavhum, ko'z bilan ko'rinmaydigan, tushunchalarni jismoniy tajribalar orqali tushunish usuli. Bu bizning asosiy tafakkur usulimizdir. "Og'ir vazifa" misoli: Bolalikda biz tosh ko'targanimizda og'irlikni his qilamiz. Bu jismoniy tajriba bizda "og'irlik bu qiyinchilik" deb tushunishni shakllantiradi. Kattaligimizda murakkab ishga, vaziyatga duch kelganimizda, biz uni "og'ir vazifa" deb ataymiz. Bu yerda biz jismoniy og'irlik hissiyotini mavhum qiyinchilik tushunchasiga o'tkazamiz. "Soliq to'lash yengillatiladi" misoli: Yengil yuk ko'tarish oson bo'ladi - bu har kim biladigan jismoniy tajriba. Hukumat soliqlarni kamaytirganda, bu moliyaviy yukning kamayishini anglatadi. Biz bu vaziyatni "yengillash" deb ataymiz. Bu yerda jismoniy yengillik hissiyotini moliyaviy maydonga ko'chiramiz. Tilshunos shu bilan birgalikda bunday misollar keltiradi, Yuqorilik - yaxshilik ("yuqori martaba", "yuqori ball") Quyosh - baxt ("hayotida quyosh chiqdi") Yo'l - hayot ("hayot yo'lim"). Bu metaforalar tasodifiy emas. Ular bizning jismoniy tajribalarimizga asoslanadi. Chunki biz balandlikka chiqqanda ko'proq kuch sarflaymiz, quyosh chiqqanda issiq va yorug' bo'ladi, yo'l bosib ketish uchun mavjud. Metaforalar mavhum tushunchalarni tajribalarimiz bilan bog'lab tushuntirishga yordam beradi, turli sohalar o'rtasida bog'lanish yaratadi, yangi g'oyalarni tushunishga yordam beradi, tilni boyitadi va hayotiy qiladi, bizning tilimiz to'g'ridan-to'g'ri jismoniy tajribalarimizdan kelib chiqadi. Biz avval narsalarni his qilamiz, keyin ular haqida gapira boshlaymiz. Metaforalar esa bizga murakkab va mavhum g'oyalarni oddiy jismoniy tajribalar orqali tushuntirish imkonini beradi.

Tilning Idrokka Ta'siri: Tildan Tajribaga - Tilning grammatikasi, so'zlari va iboralari bizning qanday o'ylashimizga bevosita ta'sir qiladi. Har bir til o'ziga xos bo'lib, uning so'zlashuvchilari dunyoni biroz boshqacha idrok etadi va shunga mos ravishda qarorlar qabul qiladi. Til nafaqat fikrlashimizni ifodalash uchun emas, balki o'zi fikrlashimizni shakllantirish uchun ham xizmat qiladi. Til birinchi navbatda diqqatimizni ma'lum narsalarga qaratadi. Har bir tilning o'ziga xos so'zlari va qoidalari bor. Masalan, ba'zi tillarda yo'nalishni aytishda "chap" va "o'ng" deyilsa, boshqa tillarda "shimol", "janub" kabi so'zlar ishlatiladi. Bu odamlar fazoni idrok qilishida farq yaratadi. Vaqtni tasavvur qilish ham tillarga qarab o'zgaradi. Ingliz tilida vaqt gorizonta yo'nalishda harakat qilgandek tasvirlansa "oldinga surish", "ortga qaytarish", xitoy tilida esa vaqt vertikal "yuqoridagi hafta", "quyidagi hafta" deb tushuniladi. Bu esa vaqtni qanday tasavvur qilishimizga ta'sir ko'rsatadi. Til, shuningdek, tafakkur jarayonlarimizga ham ta'sir qiladi. Masalan,

nemis tilida xavf-xatar tushunchasini ikki xil so'z bilan ifodalash mumkin: biri tashqi xavf, ikkinchisi esa hisoblangan xavf uchun. Ingliz tilida esa bu ikki tushuncha uchun odatda bir soz ishlatiladi. Bu farq nemis va ingliz tillarida so'zlashuvchilarning xavfni tahlil qilishida farqlarga olib kelishi mumkin. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, "ko'pri" so'zi nemis tilida urg'uli ("die Brücke") bo'lgani uchun nemislar uni "chiroyli, nafis" deb tasvirlashga moyil bo'lsalar, ispan tilida urg'usiz ("el puente") bo'lgani uchun ispanlar uni "kuchli, mustahkam" deb tasvirlaydi. Til tafakkur jarayonlarimizning tezligi va samaradorligini o'zgartiradi.

Xulosa. "konsept" til, tafakkur va madaniyat kesishmasidagi asosiy tushuncha sifatida tahlil qilinadi. Kognitiv tilshunoslikka ko'ra, konseptlar insonning jismoniy tajribasi va madaniyati asosida shakllanadi. Metaforalar orqali mavhum g'oyalarni anglash mumkin. Til idrokni, idrok esa tilni shakllantiradi. Konsept tushunish tilshunoslik, psixologiya va madaniyatshunoslikda muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Boroditsky, L. (2001). Does language shape thought? Mandarin and English speakers' conceptions of time. *Cognitive psychology*, 43(1), 1-22.
2. Boroditsky, L. (2011). How language shapes thought. *Scientific American*, 304(2), 62-65.
3. Chomsky, N. (1986). *Knowledge of Language: Its Nature, Origin, and Use*. Praeger.
4. Croft, W., & Cruse, D. A. (2004). *Cognitive Linguistics*. Cambridge University Press.
5. Erton, İ. (2020). Cognitive linguistics: A brief survey of its main concepts and applications. *RumeliDE Dil ve Edebiyat Araştırmaları Dergisi*, (Ö8), 168-181.
6. Evans, V., & Green, M. (2006). *Cognitive Linguistics: An Introduction*. Edinburgh University Press.
7. Johnson, M. (1987). *The Body in the Mind: The Bodily Basis of Meaning, Imagination, and Reason*. University of Chicago Press.
8. Lakoff, G. (1990). *Women, Fire, and Dangerous Things*. University of Chicago Press.
9. Lakoff, G., & Johnson, M. (1980/2003). *Metaphors We Live By*. University of Chicago Press.
10. Lakoff, G., & Johnson, M. (1999). *Philosophy in the Flesh: The Embodied Mind and Its Challenge to Western Thought*. Basic Books.
10. Langacker, R. W. (1987). *Foundations of Cognitive Grammar, Volume I: Theoretical Prerequisites*. Stanford University Press.
11. Langacker, R. W. (1991). *Concept, Image, and Symbol: The Cognitive Basis of Grammar*. Mouton de Gruyter.

12. Langacker, R. W. (2008). Cognitive Grammar: A Basic Introduction. Oxford University Press.
13. Levinson, S. C. (2003). Space in language and cognition: Explorations in cognitive diversity. Cambridge University Press.
14. Segel, E., & Boroditsky, L. (2011). Grammar in art. *Frontiers in Psychology*, 2, 244.
15. Tomasello, M. (2003). Constructing a Language: A Usage-Based Theory of Language Acquisition. Harvard University Press.
16. University of California, San Diego. (n.d.). Ronald W. Langacker: Professor Emeritus of Linguistics.